O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR HOKIMINING
QARORI

140800, Kattaqo‘rg‘on sh., Amir Temur ko’chasi, 4-uy. Tel.: (66) 4561001, 4561589, e-mail: kattaqorgon.sh@exat.uz, info@ kattakurgon.uz

2021 - yil 30 - dekabr 136-7-106-Q/21 Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Shahar hokimligining yangilangan boshqaruv apparati tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli Farmoni hamda 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahar hokimligining yangilangan boshqaruv apparati tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish

masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari tizimida hokim yordamchilari lavozimi joriy etilsin.

4. Belgilansinki hokim yordamchilari:

mahalladagi ishsiz aholini ish bilan ta’minlash, ularga doimiy daromad manbaini yaratishga ko‘maklashish uchun ustuvor ravishda mahalladagi muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda faoliyatini olib boradi;

respublika vakillari bilan birgalikda o‘ziga biriktirilgan mahallani rivojlantirish bo‘yicha 2022-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqadi va ijrosini ta’minlaydi;

ajratilayotgan resurslardan samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshiradi;

amalga oshirilgan ishlar natijadorligi yuzasidan shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari bilan birgalikda doimiy ravishda hokimga hisobot berib boradi.

5. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Sayipov), shahar tashkiliy-kadrlar guruhi (X.Sadullayev)larga **10 kun muddatda** shahar hokimligining boshqaruv apparati to‘g‘risidagi, hokim o‘rinbosarlarining funksional vazifalari hamda faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi, tashkiliy-kadrlar guruhi to‘g‘risidagi, shahar hokimligi ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassisi to‘g‘risidagi nizomlar loyihasini tayyorlab tasdiqqa kiritish vasifasi yuklansin.

6. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Sayipov) shahar hokimi yordamchilariga **1 hafta muddatda** ish faoliyatida zarur bo‘ladigan kompyuter va boshqa zaruriy uskunalar bilan ta’minlasin.

7. Shahar hokimligi Moliya bo‘limi (F.Sadriddinov) tasdiqlangan shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazsin hamda yangi kiritilgan boshqaruv xodimlari uchun lavozim maoshi, davlat xizmatchisi sifatida lavozim maoshiga o‘rnatilgan tartibda rag‘batlantirish koeffitsiyenti va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha pul mablag‘larini ajratsin.

8. Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (X.Sadullayev), xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (N.Xakimov) **o‘n kun muddatda** mazkur qaror va shahar hokimligining yangilangan boshqaruv apparati tuzilmasini o‘rnatilgan tartibda xalq deputatlari shahar Kengashi tasdig‘iga kiritilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Shahar hokimi v.v.b **B.Sayipov**

Каттақўрғон шаҳар ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
136-7-106-Q/21-сон қарорига
1-илова

Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi boshqaruv apparatining
TUZILMASI



**-hokimning o‘rinbosari maqomiga tenglashtirilgan
**- izoh: ushbu shtat birligi viloyat Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi hisobidan saqlanadi

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – 29 nafar
Shahar mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi xodimlar soni – 4 nafar
Hokim yordamchilari soni – 36 nafar